

## O'ZBEK TILIDA SINIQ KO'PLIK SHAKLIDAGI ARABIZMLAR SEMANTIKASI

Yuldashboyeva Sarvinozbonu Mash'albek qizi

Andijon davlat universiteti talabasi

Umarov Adaxamjon Abdusalomovich

Andijon davlat universiteti o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'zbek tiliga arab tilidan o'zlashgan ko'plik shaklidagi arabizmlar semantikasi, qo'llanilish qamrov doirasi tahlil qilingan. Badiiy matnlardan olingan misollar orqali yanada keng tadqiq qilingan.

**Kalit so'zlar:** o'zlashmalar, siniq ko'plik, manba, leksika, arab tili, o'zbek tili, semantika.

**Аннотация:** В данной статье анализируется семантика и сфера употребления арабизмов во множественном числе, заимствованных в узбекский язык из арабского языка. Дальнейшее изучение на примерах из художественных текстов.

**Ключевые слова:** заимствование, арабизм, ломаное множественное число, источник, лексика, арабский язык, узбекский язык, семантика.

**Abstract:** This article analyzes the semantics and scope of use of Arabic in the plural, borrowed into the Uzbek language from the Arabic language. Further study on examples from literary texts.

**Key words:** borrowing, arabism, broken plural, source, vocabulary, arabic language, uzbek language, semantics.

Xoliqi olam odamzodga idrok va so'z aytish ne'matini berib, uni barcha xilqatlardan ustun yaratdi, jonli va jonsiz olamga hokim qildi. Olamni idrok qilgan inson So'zni idrok qiladi. So'zni idrok qilib, olamni yanada teranroq idrok qiladi. So'zning ildiziga yetgan kishi dunyoning tagiga yetgandek bahra topadi. Insoniyat tarixi so'zlar qismatida yashirinib yotar ekan.

Ulug' mutafakkir bobomiz Alisher Navoiy So'zga shunday yuksak baho beradi: "Ey So'z, bunchalik ajoyib gavharsan?! Gavhar nimasi, mavj urgan dengizsan! U buncha dilkash naqshlarni bir to'lqinlanish bilan yarqiratib yaratdi. Yer qa'ridan tortib, falak yuksakligigacha bo'lgan narsalarning jami uning avvalgi mavjidir!"

So'zni eshitamiz, so'zlashni qotiramiz, lekin so'z mag'zini chaqish aksar xayolimizga kelmaydi. Nega shunday deymiz, deya o'zimizga savol bermaymiz. Bu sinoat to'la olam bamisoli olisdagi yulduzlardek noayon qolaveradi. Dastavval odamzodga so'zlash ne'mati berilganda u qaysi tilda so'zlagan ekan? O'zbek tilidami yoki ingliz tilida, balki arab tilidadir? Bu tillar qayerdan kelib chiqqan o'zi, qanday paydo bo'lgan, nima uchun bir narsani turli til egalari turlicha ataydi? Bizning tilimiz qayerdan kelgan?

Iste'dodli ijodkorimizni qiynagan jumboqlar kaminani ham tinch qo'ymaydi. Shu savolimizga javob izlab tillar tarixiga murojaat qildik. Ko'p tilshunoslarning kitoblarini varaqladik, lekin javobni baribir o'zimizning bobomiz Alisher Navoiy dargohlaridan topdik. U kishi o'zining chog'ishtirma tilshunoslikka asos solgan "Muhokamat ul-lug'otayn"da shunday yozadi:

*"Nuh payg'ambar (solavotu alayx)ning uch o'g'li Yofas va Som va Xom yetishur. Va bu mujmal tafsili budurki, Nuh (alayhissalom) to'fon tashviridin najot va aning mahlakasidin hayot topti, olam ma'murasida bashar jinsidin osor va inson nav'idin namudor qolmaydir erdi. Yofasniki tavorix ahli Abut-turk bitirlar. Xito mulkiga yibordi va Somniki, Abul-furs bitirlar Eron va Turon mamolikining vasatida voli qildi va Xomniki, Abul-hind debdurlar, Hindiston vilodiga uzatdi va bu uch payg'ambarzoda avlod va atboi mazkur mamolikda yoyildilar va qalin bo'ldilar."*

Shu tariqa, shu uch payg'ambar avlodlarida, ya'ni Somdan somiy tillar, Xomdan hind-yevropa tillari hamda Yofasdan turkiy tillar tarqalgani haqida ko'p olimlarning qarashlari mavjud. Yofasning avlodlaridan bo'lgan turkiylarning tili haqida jadidlarimizning yorqin vakillaridan bo'lgan Abdurauf Fitratning qarashlari bunday:

*"Dunyoning eng boy, eng baxtsiz bir tili qaysi tildir? Bilasizmi? Turkcha. Shoirlik qilmoqchi emasman, so'zning to'g'risi shudir. Dunyoning eng boy tili turkchadir, eng baxtsiz tili ham turkchadir. Tillarning baxtsizligi Sovat hukumati chog'inda bo'lg'on bir ishdir, bundan burun baxtli edilar, deganlar tilimizning holini bilmasdan gapuralar."*

Tilimiz tarixi juda ko'p daxshatlarga guvoh bo'lgan. Mo'g'ullar bosqini, arablar bosqini, ruslar bosqini... shunday bo'lishiga qaramasdan, o'zbek tili ildizi mustahkam chinorday qaddini bukmadi, qaytanga shu tillar bilan lug'at boyligi yanada boyidi.

O'zbek tili ham boshqa tillar kabi leksik jihatdan boyib bormoqda. Hozirgi fan va texnologiyalar rivoji ham yangi so'zlarning kirib kelishiga asos bo'lmoqda. Undan tashqari o'zbek tilining lug'at boyligi tashqi manbalar asosida ham rivojlanadi. Dunyoda boshqa tillardan so'z olmasdan faqat o'z ichki imkoniyatlari asosida rivojlanadigan birorta ham til yo'q. Jumladan, o'zbek tili ham. O'zbek tili leksikasining tashkil topishida uch komponent muhim rol o'ynaydi:

1. Barcha so'zlar eng qadimgi turkiy tildan kelib chiqqan bo'lib, bu tilning o'z qatlamini tashkil qiladi.
2. O'zlashma so'zlar – boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar bo'lib, asosan, o'zga tildagi so'zni o'z tilimizga grammatik va orfoepik jihatdan moslashtirish degani.
3. Til o'z ichki imkoniyatlari yordamida, ya'ni yangi so'z yasash yoki shevalardan so'z olish orqali rivojlanadi.

Jadidlarimizning yorqin vakili Abdurauf Fitrat so'z o'zlashtirish borasida o'zining "Tilimiz" maqolasida shunday yozadi:

*"Hozirgi so'zlarimizdagi arabcha, forschalardan bir nechasi uchun turkcha topilmaydur. Biz ham unlarni chiqarmoqchi emasmiz. Unlarni olurmiz, lekin*

*o'zimizniki qilurimiz. Turkchalashtirurimiz. Qoidaning turkchasi yo'qdir. Sarfning-da, turkchasini topolmadik. Ikisin daxi olurimiz, lekin siz kabi "qavoyidi sarfiya" demasdan sarf qoidalari dermiz."*

Bundan ko'rinib turibdiki, turkiy tilga o'zlashgan so'zlar o'sha tilning fonetik imkoniyatlari, grammatik tuzilishi, shu etnik guruhning imkoniyatlarini hisobga olib o'zlashtiriladi. Ma'lumki, so'zlar har qanday tarixiy taraqqiyot natijasida, turli davrlarda turlicha ma'no kasb etishi mumkin. Jumladan, o'zlashma so'zlar ham. Quyida hozirgi tilimizda faol qo'llanayotgan ko'plik shaklidagi bir nechta arabizmlarning semantikasini tahlilga tortdik. Ushbu tahlilni Erkin Vohidovning "So'z latofati" asarida keltirilgan parchadan boshlamoqchimiz. Zero, bizni qiziqtirgan masalaga shoir ham befarq qaramagan.

*"Bamisoli ulamo, fuzalo, olim-u fozillarning ko'plik shakli bo'lganidek, fuqaro ham faqirlar, ya'ni kambag'allar, yo'qsillar demakdir. Qoidaga ko'ra, fuqaroga ham -lar qo'shish xato bo'ladi. Ilmiy-mantiqiy nuqtai nazardan ham, shakl-u mazmun jihatidan ham bu huquqiy atama ustida turlicha bahslar yuradi. Fuqaro so'ziga -lar qo'shish mumkinmi? Asli ma'nosida, albatta, yo'q! Lekin yangi ma'no kasb etgach mumkin ekan. XIX asr boshlarida Qo'qonda yashab ijod etgan o'z zamonasining "malik ush-shuaro"si bo'lgan Fazliyning: Senga arz etar fuqarolaring, – degan so'zlari bor. Bu g'azalga shoir vola bog'lagan muxammas Bozurgoniy kuyga solib hali-hamon aytiladi. Demak, bundan ikki asr avval fuqaro amirlikka tobe inson ma'nosida ishlatilgan va fuqarolar shakli ham mavjud bo'lgan."*

Tilimizda bu kabi so'zlar juda ko'p. Ayrimlari allaqachon izohli lug'atimizdan joy olgan. Ulardan bir nechtasini keltiramiz:

taraf-atrof	xulq-axlaq
sir-asror	usturat-asatiyr
valaddun-avlod	yavm-ayyam
jaddun-ajdad	fozil-fuzalo
olim-ulamo	tafsir-tasofir
lavn-alvan	tasnif-tasonif
nahr-anhar	raqam-ruqum
qalb-qulub	varaq-avroq
ilm-ulum	kitob-kutub
hakim-hukamo	habib-ahbob
yavmun-ayyam	shay'un-ashya

Yuqoridagi so'zlar birlik va siniq ko'plik shaklida berilgan. Ulardan **atrof**, **avlod**, **alvon**, **anhor**, **ahbob**, **xalq**, **fuzalo** kabi so'zlar arab tilida ko'plikni bildiruvchi so'zlardir. Lekin, tarixiy taraqqiyot natijasida bizning tilimizda u nafaqat, ko'plik shaklini yo'qotgan, balki umuman, boshqa semaga ega bo'lgan. Masalan, **alvon** so'zi arab tilida ranglar degan ma'noni bildirsa, o'zbek tilida qizil rangni bildiradi. Agar u takror keladigan bo'lsa, (alvon-alvon) turfa-xillikni ifodalaydi. **Anhor** so'zi ham

shunday. U arablarda daryoning ko'plik shaklini bildiradi, bizda esa ariqdan kattaroq bo'lgan suv havzasini bildiradi. **Avlod** – bolalar degani. Lekin biz bolalarimizni avlodlarim deb ataymiz. Bu so'zlarning tarixiy etimologiyasini Sh.Raxmatullayev o'zining "O'zbek tilining etimologik lug'ati"da ochib bergan. Unda yozishicha, avlod so'zi ʻavlād(un) shakliga ega bo'lib, o'zbek tiliga fathali hamzani a tovushiga, cho'ziq a: unlisini a unlisiga almashtirib qabul qilingan. Bu so'z aslida "dunyoga keltirdi" ma'nosini anglatuvchi **valada** fe'lidan hosil qilingan **valad(un)** masdarining ko'plik shakliga teng. Bu so'z Arab tilida *farzandlar*, o'g'illar ma'nosini, o'zbek tilida esa "**bir otadan tarqagan nasl**", "**zurriyot**" ma'nolarini anglatadi.

Arab tilida **kun** so'zining ko'pligi **ayyam**. Biz esa bu so'zni bayramlarga nisbatan ishlatamiz. M: "*Ayyomlaringiz bilan, - dedi Mahbuba.*" **Asotir** so'zi xalq og'zaki ijodidan bizga yaxshi tanish. O'zbek tilida afsonalarga sinonim sifatida asotirlar deb ham aytiladi. **Axloq** va **xulq** so'zlari leksik bazamizda bir sinonimik qatorda turadi. M: "*Yaxshi axloqlar jamlanmasi komil insonda mavjud.*" O'zi ko'p bo'lib turgan narsaga yana *-larni* qo'shishning nima keragi bor, deyishimiz mumkin. To'g'ri u ko'p, faqat arablarda. Biz uni Fitrat bobomiz aytganidek, birlik shaklida o'zimizniki qilganmiz. Demak, bu xato emas.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, til – serqirra hodisa. Nutq faoliyati esa undan-da murakkab. Biz ba'zan aytayotgan so'zlarimizning begonaligini sezmasdan gapiramiz. Ular shu qadar o'zlashib, tilimizga singib ketganki, nutqimizda ular doimiydek eshitiladi, lekin bunday holatlarga befarq qaramasligimiz kerak. O'zimizniki bo'lgan so'zlarimizning o'rniga chet so'zlarini ishlatish tillarni jar yoqasiga kelib qolishiga sababchi bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Иброҳимов Н., Юсупов М. Араб тили грамматикаси. – Тошкент, Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1997.
2. Abdurauf Fitrat - Tanlangan asarlar 4-jild 127-bet
3. А. Навоий. Танланган асарлар. III том. Т. Уздавнашр, 1948. 115-бет
4. Erkin Vohidov. So'z latofati T. "O'zbekiston". 2014 .206-bet